

SHARQ MUTAFAKKIRLARI VA PEDAGOG OLIMLARNING BOLA TARBIYASI TO`G`RISIDAGI QARASHLARI

Ro'ziyeva Nafisa Qurbonovna

Buxoro pedagogika kolleji Maktabgacha ta'lim kafedrası.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fani o'qituvchisi:

Annotatsiya: Ushbu maqolada sharq mutafakkirlari va pedagog olimlarning bola tarbiyasi to`g`risidagi qarashlari, oila va oilada farzand tarbiyasi qanchalik e`tiborga molik va muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so`zlar: ta'lim, tarbiya, bola tarbiyasi, estetik tarbiya, mehnat tarbiyasi, odob-axloq, ota-ona, to`g`rilik, axloqiy fazilat, odillik, oila, kamtarlik.

Oilada axloqiy tarbiyaning rolini ko`rsatish, unda ota-bobolarimizdan meros bo`lib qolgan axloqiy fazilatlarni egallashning naqadar ahamiyatli ekanligini ilmiy nazariy jihatdan tahlil etish juda muhimdir. Oilada bola tarbiyasi masalasi juda qadimdan mutafakkirlarni qiziqtirib kelgan, ular bu masalaga hayotiy faoliyatning muhim bir tomoni sifatida qaraganlar va uni hal etishni o`zlarining vazifasi deb hisoblaganlar

Sharq mutafakkirlarining merosida ta'lim - tarbiya masalalari muhim o`rin egallaydi. Ayniqsa, ular oila va oilada farzand tarbiyasiga katta e`tibor berganlar. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida oilada bola tarbiyasi masalalari va ularni hal etish yo`llari ko`rsatib berilgan. **Abu Nasr al-Farobiy** o`z asarlarida har bir kishi jamiyatga, davlatga munosib inson bo`lishi uchun ta'lim va tarbiya olishi lozim deb hisoblaydi. Yoshlarga ta'lim va tarbiya beradigan ustoz shogirdiga nisbatan juda qattiq zug`um qilmasligi, shuningdek, haddan tashqari ko`p yon berishga ham intilmasligi lozim, chunki ortiqcha zug`um shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyqotadi, bordi-yu, shogird ustozning juda ham yumshoqligini payqab qolsa, bu hol ustozni mensimaslikka va u beradigan bilimdan sovishga olib keladi. Farobiyning ta'kidlashicha, har bir kishining fe'l - atvoriga qarab tarbiya ikki usul - ixtiyoriy va majburiy usullar bilan amalga oshirilishi mumkin. Bordi-yu tarbiyalanuvchilar fan va hunar o`rganishga moyillik bildirsalar, ularga nisbatan ilhomlantirish, rag`batlantirish usuli qo`llaniladi: aksincha, mabodo ular o`zboshimcha va itoatsiz bo`lsalar, majburiy usulni qo`llash mumkin Abu Nasr Farobiyning fikricha bola tarbiyasi bir maqsadga qaratilgan holda olib borilmog`i va u aqliy va axloqiy tarbiya birligidan iborat bo`lmog`i lozim degan xulosaga kelgan.

Abu Ali Ibn Sino bolani maktabda o`qitish va tarbiyalash zarurligini qayd etib, maktabga barcha kishilarning bolalari tortilishi va birga o`qitilishi va tarbiyalanishi

lozim deb, bolani uy sharoitida yakka o'qitishga qarshi bo'lgan. Bolani maktabda jamoa bo'lib o'qishini foydasi quyidagicha ifodalangan:

Agar o'quvchi birga o'qisa u zerikmaydi, fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Bularning hammasi o'qishning yaxshilanishiga yordam beradi.

O'zaro suhbatda o'quvchilar bir-biriga kitobdan o'qib olganlari, kattalardan eshitganlarini hikoya qiladilar.

Bolalar birga to'planganlarida bir-birini hurmat qila boshlaydilar, do'stlashadilar, o'quv materiallarini o'zlashtirishda bir-biriga yordamlashadilar, bir-biridan yaxshi odatlarni qabul qiladilar

Bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish

Bu talablar hozirgi davr ta'lim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish masalalari Abu Ali ibn Sino merosida yoritilganini ko'rishimiz mumkin. Shunga ko'ra ibn Sino o'qituvchining qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritir ekan, shunday yo'l-yo'riqlar beradi. Bular quyidagilardan iborat:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- berilayotgan bilimning talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berishi;
- ta'limda turli metod va shakllardan foydalanishi;
- talabalning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- fanga qiziqitira olishi;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi;

Har bir so'zning bolalar Hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishishi zarur, deydi olim

Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu hozirgi davr pedagogikasi ham e'tirof qiluvchi irsiyat, muhit, tarbiyadir. Ma'lum bir davrda olimlar inson kamolotiga irsiyat, muhitning ta'sirini inkor etib, faqat tarbiyani tan oldilar. Lekin Beruniy o'z zamondoshlari - buyuk mutafakkirlar Farobiy, Ibn Sinolar kabi inson kamolotida har uchalasini ham muhim deb hisoblaydi. Ya'ni u insonning kamolotga etishida ilmu ma'rifat, san'at va amaliyot asosiy rol o'ynasa-da, nasl-nasab, ijtimoiy

muhit va ijtimoiy turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Abu Rayhon Beruniy nazarida inson kamolga yetishining eng muhim omillari ilm-ma'rifatli bo'lish va yuksak axloqlilikdir. Beruniy ilmiy bilishga oid, ta'lim metodlari haqidagi qarashlari bilan ta'lim nazariyasida o'ziga xos maktab yaratdi.

Beruniy ota –onalarning bolalari bilan birga harakat qilishlari, turli o'yinlar uyushtirishlari, ular bilan o'zaro suhbatlar o'tkazishlari maqsadga muvofiq deb maslahat beradi. Beruniy tarbiyaning maqsadi va vazifalari haqidagi, shaxsning rivojlanish to'g'risidagi fikrlarining zamirida insonparvarlik g'oyasi yotadi. U har bir ota –ona o'z farzandlariga ana shu g'oyani singdirishi zarur degan xulosaga keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotini muhim uyushtirish, ularni vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanishning asosiy garovi ekanligini ota – onalar o'z farzandlariga o'qitirishlari lozim. Bola tarbiyasi masalalari bo'yicha Abu Ali ibn Sino “Tadbir almanozil” nomli asarini yozgan. Unda olim ota – onaning bolalarni tarbiyalashdagi vazifalarini yoritilgan. Asarda oilada onaning vazifasi va burchiga, oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa ota –onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va xunarga o'rgatish borasida muxim fikrlar bayon etadi. Yusuf Xos Xojib “Qutadg'u bilig” asarida oilaviy maishiy turmush muammolariga ham katta e'tibor beradi. Ota –onalar nazoratda bo'lgan bolaning ma'suliyat hissi rivoj topadi. Shu sababli ham bola tarbiyasida ota –onaning mavqeyi alohida ahamiyatga egadir. Ular tanlagan to'g'ri yo'l farzandlarining kelajakni, kamoloti uchun psixologiyasida muhimdir. Mirzo Ulug'bekning qarashlarida bolaning bilim olishga bo'lgan qiziqishi havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o'rin tutadi. Kaykovus “Qobusnoma” pandnomasida o'z farzanding sening haqingda qanday bo'lishini istasang, sen ham ota –ona haqida shunday bo'lg'il deb yoshlarni ota –onasini hurmat qilishga e'zozlashga, mehr –oqibatli bo'lishga da'vat etadi. Bola tarbiyasi masalasi buyuk mutafakkir Alisher Navoiy merosida ham munosib o'rin egallaydi. U o'zining qator asarlarida ta'lim –tarbiya masalalari umuminsoniyg'oya ekanligini ta'kidlaydi.

Ta'lim jarayonida bola imkoniyatlarining namoyon bo'lishi ma'lum darajada nasliy omillar bilan ham bog'liqdir. Bolalar o'z temperamenti xususiyatlariga ko'ra ham bir –birlaridan ajralib turadilar: xushchaqchaq, sergap, quvnoq, xayotning o'zgaruvchan sharoitlariga tez moslasha oladigan bolalar sangvennik tipreraimentga mansub; qo'shimcha noxush kayfiyatda yuradigan, ta'sirchan, kamgan, sust bolalar melanxolik temperamentga kiradilar; xotirjam, befarq, kamharakat, nutqi sust bolalar –flegmatik; jaxldor, betoqat, serzarda, harakatchan bolalar –xolerik hisoblanadilar. Bolalar kattalarning yordamiga muxtoj bo'lishiga ham qarab bir –birlaridan farq qiladilar. Ba'zi bolalar biror xatti- harakatni bajarishni bir necha marta ko'rsatish, tushuntirish kerak. Bolalar o'zlarini qiziquvchanlik, aqliy faolliklariga qarab ham bir –birlaridan ajralib turadilar. Bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi keng va mukammal bo'lib rivojlangan bo'lishi darkor. Bolalarga qanchalik yaxshi bilim bersak, o'ylaymizki ular kelajakda Vatanga sadoqat ruhida, yetuk inson bo'lib yetishadilar. Demak, tarbiyachi bola shaxsida axloqiy his –tuyg'ularni tarbiyalash uchun hamma

vosita va metodlarni qo'llasa, yaxshi xulq namunalarini o'rgatish ancha oson kechadi. Bolani maktabga tayyorlashda tarbiyani har tomonlama jumladan ma'naviy axloqiy, aqliy estetik, jismonan va mehnat tarbiyalarini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi. Ma'naviy tarbiyani bolaga o'tmishda Vatan ravnaqi, el –yurt tinchligi va faravonligi yo'lida kurashgan xalq qahramonlari haqida gapirib berish, mustaqillik, qadriyat va an'analimizni o'rgatish orqali singdirish mumkin. Oilaviy tarbiya jarayonida shaxsning bir qator axloqiy jihatlari shakllanadigan, boshqa hych qaysi tarbiya ob'ekti oiladagidek yuqori natija bermaydi. Kelajak avlodga estetik tarbiya berishda ham oilaning muhim o'rni bor. Oila davrasida qo'shiqlar kuylanishi, biror ertak yoki asarni oila davriasida o'qish, birga spektakl va kino ko'rish va tahlil qilish va hokazolar bolani estetik tarbiyasini shakllantirishdagi jihatlardir. Bola hayotida mehnat tarbiyasi muhim sanaladi. Mehnat bolalarda uyushqoqlik, diqqat, saramjom – sarishtalikni tarbiyalash, shuningdek maqsadga erishishda sabot va matonat kabi iroda xususiyatlarini rivojlantirish vositasidir. Bola hayotining kun tartibi, odatda sog'lom bola kasalmand va zaif bolaga nisbatan maktab kun tartibiga va butun dars davomida o'zida jo'sh o'rib turgan g'ayratlarini tiyib jim o'tirishga tezroq ko'rinadi. Bolani maktab kun tartibiga tayyorlashda, uning sog'ligini mustahkamlashda ertalab ma'lum vaqtda o'rindan turish, ovqatlanish va uyquga yotishga aniq rioya qilinishi kerak.

Buyuk allomalarimiz Beruniy, Farobiy, Kaykovus, Alisher Navoi ning qoldirgan bebaho madaniy, ma'rifiy merosi yosh avlod uchun ibrat va namuna ekanligi, ularning ta'lim-tarbiyaga oid ma'rifiy ta'limotlari yoshlarni ona-Vatanga, millatga sadoqat va hurmat ruhida tarbiyalashda, ularni iymon, e'tiqodli, mehr-oqibatli, insof va diyonatli, odob-axloqli, oqil va odil inson qilib tarbiyalashda, o'zligini anglashda benazir ma'naviy qadriyatlar darajasiga ko'tarish eng ulug'vor vazifadir.

Xulosa:

Bugungi kunda barkamol inson tarbiyasi, bola tarbiyasida ota-ona mas'uliyatini oshirish, ularni pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollantirish eng dolzarb masalasi hisoblanadi. O'zbek milliy qadriyatlari, milliy madaniyati, bola tarbiyasi va rivojlanishi haqidagi pedagogik bilimlarni takomillashtirish ilk bor oila tomonidan amalga oshiriladi. Kelajak poydevori bo'lgan, har jihatdan ma'suliyatli, ma'naviy yetuk, axloqan pok, jamiyat taraqqiyoti uchun munosib hissa qo'sha oladigan yoshlarni tarbiyash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kozlova S.A., Maktabgacha pedagogika: Kurs kitobi - Moskva: Akademiya, 2006. - 416 p
2. A.Xoliqov "Pedagogik mahorat" Toshkent 2011
3. J. Hasanboyev va boshqalar "Pedagogika" Toshkent 2011
4. O. Xasanboyeva. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi". Toshkent. "ILM-ZIYO" Qo'llanma-2011
5. A. Zununov. Pedagogika tarixi. Darslik- 2002.